

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti akademik
litseyining bo'sh turgan yer maydonida davlat-xususiy sheriklik asosida
inklyuziv ta'limga ega 500 o'rinli xususiy xalqaro maktab tashkil etish
loyihasi yuzasidan jamoatchilik muhokamasi e'loni**

Ma'lumki, so'nggi yillarda mamlakatimizda xususiy sektorga berilayotgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Zero, davlat tomonidan ko'rsatiladigan ba'zi xizmatlarning xususiy sektorga o'tkazilishi nafaqat mazkur sohada ko'rsatiladigan xizmat sifatini oshishini, balki budjet mablag'larining samarali sarflanishini ham ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-oktabrdagi "Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 720-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qaror talablaridan hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish, xususiy investitsiyalarni jalb etish va zamonaviy ta'lim infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalaridan kelib chiqib ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini oshirish rejalashtirilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.10.202- yildagi **"Davlat-xususiy sheriklik sohasini yanada takomillashtirish hamda kompleks tizimlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 720-son qarori bilan tasdiqlangan **"Davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"**gi nizom 11-bandida aholining, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) iste'mol qiluvchilarning, ulardan foydalanuvchilarning manfaatlarini inobatga olish maqsadida vakolatli davlat organining talabiga binoan DXSh loyihasi jamoatchilik muhokamalari bilan birga tayyorlanishi lozimligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Urganch davlat universiteti akademik litseyining bo'sh turgan yer maydonida davlat-xususiy sheriklik asosida inklyuziv ta'limga ega 500 o'rinli xususiy xalqaro maktab tashkil etish loyihasi (*quyidagi ilova qilingan jadvalga qarang*) ishlab chiqilayotganligi ma'lum qilinadi.

Loyiha doirasida tadbirkorlik subyekti mablag'lari hisobidan Urganch davlat universiteti akademik litseyiga biriktirilgan bo'sh yer maydonida zamonaviy xalqaro umumiy o'rta ta'lim maktabini barpo etishni nazarda tutadi. Loyiha doirasida **500 nafar** o'quvchiga mo'ljallangan zamonaviy ta'lim majmuasi qurilib, xalqaro standartlarga mos o'quv dasturlari, STEM va IT laboratoriyalari, robototexnika markazlari, kutubxona, sport infratuzilmasi, oshxona, tibbiyot punkti hamda boshqa zarur ta'lim obyektlari tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Loyiha doirasida xususiy sherik hisobiga barpo etiladigan 500 nafar o'quvchiga mo'ljallangan zamonaviy ta'lim majmuasi Bitim muddatidan so'ng davlat sherigiga soz holda qaytariladi.

Loyihaning ustuvor ijtimoiy yo'nalishlaridan biri inklyuziv ta'limni rivojlantirish hisoblanadi. Shu munosabat bilan loyiha doirasida 150 o'rinli inklyuziv ta'lim kvotasi joriy etilishi nazarda tutilgan bo'lib, 50 nafar nogironligi bo'lgan yoki davlat sherigi tomonidan tavsiya etilgan ijtimoiy himoyaga muhtoj

o'quvchilar bepul, 100 nafar o'quvchilar esa pullik asosda inklyuziv ta'lim xizmatlaridan foydalanadi.

Loyiha joylashuvi aniq koordinatlari - 41°33'39.70"N 60°36'12.10"E



Mazkur loyiha yuzasidan fikr-mulohazalaringiz mavjud bo'lgan taqdirda, 2026-yil 7-avgustga qadar quyidagi elektron manzillarga yuborishingiz mumkin:

1. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Urganch shahar, 220100, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy

Elektron pochta manzili: info@urdu.uz

Telefon raqami: +998 62 224 6700

2. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

100095, Toshkent shahri Talabalar ko'chasi 7-uy.

Elektron pochta manzili: devonxona@edu.uz

Telefon raqami: 55 520-08-08 (ichki raqamlar - 224, 226)

**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti akademik
litseyining bo'sh turgan yer maydonida davlat-xususiy sheriklik asosida
inklyuziv ta'limga ega 500 o'rinli xususiy xalqaro maktab
tashkil etish loyihasi to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Asosiy ko'rsatkichlar	Ma'lumotlar
1.	Loyihaning nomi	Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti akademik litseyining bo'sh turgan yer maydonida davlat-xususiy sheriklik asosida inklyuziv ta'limga ega 500 o'rinli xususiy xalqaro maktab tashkil etish loyihasi
2.	Loyiha taraflarining nomi: Davlat sherigi: Xususiy tashabbuskor:	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi "DATA TA'LIM STANSIYASI" MChJ
3.	Loyihaning faoliyat yo'nalishi	Loyiha doirasida 500 nafar o'quvchiga mo'ljallangan zamonaviy inklyuziv ta'lim majmuasi quriladi
4.	Loyihaning joylashgan manzili	Xorazm viloyati, Urganch shahri, V. Fayozov ko'chasi, 27-uy, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti akademik litseyi hududi
5.	Loyihani amalga oshirish muddati	1 yil 3 oy.
6.	Loyihaning amal qilish muddati	20 yil.
7.	Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tariflari	O'rta ta'lim xizmatlaridan bir yilda 450 nafar o'quvchidan oylik to'lov 5000,0 ming so'm
8.	Loyihaning umumiy qiymati	31 463,3 mln.so'm (tijorat banki kredit mablag'i 22 000,0 mln.so'm)
9.	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash hajmi va turlari	Xorazm viloyati, Urganch shahri, V. Fayozov ko'chasi, 27-uy manzilidagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti akademik litseyining bo'sh yer maydoni ajratiladi.